


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

***70810701 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta
ishlash texnologiyasi magistratura mutaxassisligining***

MALAKA TALABI

Toshkent-2024 yil



ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024 yil “ 1 ” 08 dagi 247 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

| T/r | | bet |
|------------|--|------------|
| 1. | Umumiy tasnifi | 4 |
| 1.1. | Qo‘llanish sohasi | 4 |
| 1.1.1 | Malaka talabining qo‘llanilishi..... | 4 |
| 1.1.2 | Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari | 4 |
| 1.2. | Kasbiy faoliyatlarining tavsifi | 4 |
| 1.2.1 | Kasbiy faoliyatining sohalari..... | 4 |
| 1.2.2 | Kasbiy faoliyatlarining obyektlari..... | 5 |
| 1.2.3 | Kasbiy faoliyatlarining turlari..... | 5 |
| 1.2.4 | Kasbiy vazifalari..... | 5 |
| 2. | Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar | 7 |
| 3. | Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar | 8 |
| 4. | Fanlar katalogining tuzilishi | 9 |
| | Bibliografik ma’lumotlar | 11 |
| | Kelishuv varag‘i | 12 |

1. Umumiy tavsifi.

70810701 – *Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talablari 70810701 – *Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma'sul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor – o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari:

Qishloq xo'jaligi ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash hajmini oshirish maqsadida yer, suv, energetika va moddiy-texnika resurslaridan oqilona foydalanish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish bilan saqlash va qayta ishlash tarmoqlarida fan va ishlab chiqarish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash bilan ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish;

oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalarida, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimi muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishni tashkillashtirishni qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatining obyektlari.

Davlat va nodavlat tashkilotlar, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, agrosanoat majmui korxonalar, agroklastlar, fermer xo'jaliklarining boshqaruv tizimlarida muxandis, tadqiqotchi-pedagog.

70810701 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha bitiruvchilar oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan majburiy va tanlov fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi;

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyati;*
- *loyiha-texnologik faoliyati;*
- *servis xizmatini ko'rsatish faoliyati;*
- *ishlab chiqarish-texnologik faoliyati;*
- *tashkiliy-boshqaruv faoliyati;*
- *oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik va professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyati (o'rnatilgan tartibda);*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

70810701 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

ilmiy-tadqiqot muassasalarida ishlash;

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

mehnat jamoasiga rahbarlik qilish;

meva - sabzavot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash faoliyatini boshqarish sifatini nazorat qilish;

meva - sabzavot mahsulotlarini saqlash jarayonlari va tadbirlarini rejalashtirish hamda ularni ishlab chiqarishga tatbiq etish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof - muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish.

Loyiha-texnologik faoliyatida:

saqlash omborlari va meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini loyihalash uchun zaruriy tayyorgarlik;

meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlashda texnologik xaritaning texnik qismini ishlab chiqish;

meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlashda sifatni baholashda milliy va xalqaro standartlardan foydalangan holda zamonaviy uslublar va asboblarni qo'llash.

Servis xizmatini ko'rsatish faoliyatida:

mehnat jamoasiga rahbarlik qilish;

xizmat ko'rsatish sohasida me'yoriy - huquqiy hujjatlardan foydalana olish;

meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash, saqlash va qayta ishlash bo'yicha servis xizmati ko'rsatish;

meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va dastlabki qayta ishlash bo'yicha soha xodimlariga maslahat berish.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyati: ,

fermer bo'yicha yoki boshqa shakldagi xo'jaliklarning texnologiyasi bo'lib ishlash;

meva - sabzavot mahsulotlarining saqlash va dastlabki qayta ishlashda yangi navlaridan foydalanishni asoslash;

meva-sabzavot mahsulotlarini saqlashda istiqbolli texnologiyalarni qo'llash;

meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash inshootlaridan foydalanish;

meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va dastlabki qayta ishlash jarayonlari va tadbirlar bajarilishi sifatini nazorat qilish;

zamonaviy axborot texnologiyalar, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda qo'llash;

meva-sabzavot mahsulotlarini dastlabki ishlashda istiqbolli texnologiyalarni qo'llash;

kasbiy etika kodeksiga rioya qilish.

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik va professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat (o'rnatilgan tartibda):

o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallash;

elektron o'qitish usullarini egallash;

oliy va professional ta'lim tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishi;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishi;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirishi;

o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanishi;

mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi;

uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy-tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilishi;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishni sifatini nazorat qilish va tatbiq etishni bilishi;

ishlab chiqarish jarayonlarini va zahiralarini rejalashtirish va ularni ishlab chiqarishga tatbiq etishni bilishi;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqishni bilishi;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etishni bilishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyatida undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy faoliyat – ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash, ilmiy-pedagogik ishini olib borish va ilmiy-amaliy tajribalar orttirish jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetentsiyalar va malakalarni

shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim mutaxassisligi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayorlash hamda himoya qilish;

2. Ilmiy-pedagogik ish;

3. Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

| T.r | Fanning malakaviy kodi | O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|---|------------------------|--|-------------------------------------|----------------|----------|
| 1.00 | MFM146 | Majburiy fanlar | 1380 | 46 | |
| 1.01 | ITMM1204 | Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi | 120 | 4 | 2 |
| 1.02 | MFO‘MM1104 | Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi | 120 | 4 | 1 |
| 1.03 | QXMSQITUM 1106 | Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashda ilmiy-tadqiqot uslublari | 180 | 6 | 1 |
| Meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi bo‘yicha majburiy fanlar | | | | | |
| 1.04 | MSEFBM1104 | Meva-sabzavot ekinlari fiziologiyasi va biokimyosi | 120 | 4 | 1 |
| 1.05 | MSMSNAM1206 | Meva-sabzavot mahsulotlarini saqlashning nazariy asoslari | 180 | 6 | 2 |
| 1.06 | MSMSSBBM1304 | Meva-sabzavot mahsulotlari sifatiga sensorik baho berishning nazariy asoslari | 120 | 4 | 3 |
| 1.07 | USBIBIAM1306 | Uzumni saqlash va birlamchi ishlov berishning ilmiy asoslari | 180 | 6 | 3 |
| 1.08 | MSMSQITIAM1306 | Meva – sabzavot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashning texnologik va ilmiy asoslari | 180 | 6 | 3 |
| 1.09 | MEEITM1106 | Meva ekinlarini yetishtirishning intensiv texnologiyasi | 180 | 6 | 1 |
| Dala ekinlari mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi bo‘yicha majburiy fanlar | | | | | |
| 1.04 | DEFBM1104 | Dala ekinlari fiziologiyasi va biokimyosi | 120 | 4 | 1 |
| 1.05 | DEMSNAM1206 | Dala ekinlari mahsulotlarini saqlashning nazariy asoslari | 180 | 6 | 2 |
| 1.06 | DEMSSBBM1304 | Dala ekinlari mahsulotlarini sifatiga sensorik baho berishning nazariy asoslari | 120 | 4 | 3 |
| 1.07 | MOYESQITM 1306 | Moyli ekin mahsulotlarini saqlash qayta ishlash texnologiyasi | 180 | 6 | 3 |
| 1.08 | DEMTSDIBTIAM 2306 | Donli ekin mahsulotlarini saqlash qayta ishlash texnologiyasi | 180 | 6 | 3 |

“70810701 - Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi” mutaxassisligi

| | | | | | |
|---|---------------------|---|-------------------------------|------------|------------|
| 1.09 | DSMSQIZTM 1106 | Dala va sabzavot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashning zamonaviy texnologiyasi | 180 | 6 | 1 |
| Paxta xom-ashyosi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi bo‘yicha majburiy fanlar | | | | | |
| 1.04 | G‘FBM1104 | G‘o‘za fiziologiyasi va biokimyosi | 120 | 4 | 1 |
| 1.05 | PXASNAM1206 | Paxta xom ashyosini saqlashning nazariy asoslari | 180 | 6 | 2 |
| 1.06 | PXTSBM1304 | Paxta tolasi sifatini baholash | 120 | 4 | 3 |
| 1.07 | LUBTO‘SQITM 1306 | Lub tolali o‘simliklarni saqlash va qayta ishlash texnologiyasi | 180 | 6 | 3 |
| 1.08 | PXASDTIAM 1306 | Paxta xom ashyosini saqlashda dastlabki ishlashning texnologik va ilmiy asoslari | 180 | 6 | 3 |
| 1.09 | PDITJM1106 | Paxtani dastlabki ishlashda texnologik jarayonlar | 180 | 6 | 1 |
| 2.00 | | Tanlov fanlari | 420 | 14 | 2,3 |
| 2.00 | | Tanlov fanlari | 420 | 14 | 2,3 |
| | Kvalifikatsiya | | Muxandis, pedagog-tadqiqotchi | | |
| | | Jami: | 1800 | 60 | |
| 3.00 | | Ilmiy faoliyat | 1800 | 60 | |
| | | Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish | 1080 | 36 | 1,2,3,4 |
| | | Ilmiy-pedagogik ish | 360 | 12 | 1,2,3 |
| | | Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) | 360 | 12 | 4 |
| | | HAMMASI | 3600 | 120 | |

Bibliografik ma’lumotlar

UO‘K: 664.8

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so‘zlar:

Kasbiy faoliyat turi, ta’lim mutaxassisligi, kasbiy faoliyat ob’yekti, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy vazifalari, kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan umumiy talablar, magistraturaning asosiy o‘quv reja va o‘quv dasturlari, malaka talablari, magistraturaning o‘quv jarayoni, mustaqil ta’lim, ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyati, loyiha-texnologik faoliyati, servis xizmatini ko‘rsatish faoliyati, ishlab chiqarish-texnologik faoliyati, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta’lim muassasalarida ilmiy-pedagogik, professional ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyati, ilmiy amaliyot (stajirovka), magistrlik dissertatsiya ishi, davlat attestatsiyasi, o‘quv fanlari bloki, oliy ta’lim muassasasi, ta’lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

ISHLAB CHIQLILGAN:
Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektor  S. Islamov



2024-yil

06

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  M. Boltabayev





2024-yil

07

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi
Qishloq xo'jaligi vazirligi
Ilm-fan, innovatsiyalar va ta'limni
rivojlantirish boshqarmasi

Boshlig'i  T. Ataqulov



2024-yil

02

06

M.O'.

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Rektor  B. Usmonov

2024-yil

10

08

M.O'.

ChEH "Toshkentvino kombinati"
AJ

Direktor  M. Maxmudov



2024-yil

11

08

M.O'.

Sabzavot, poliz ekinlari va
kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti

Direktor  R. Nizamov



2024-yil

11

06

M.O'.

"G'alla-Alteg" AJ

Direktor  J. Xoshimxonov

2024-yil

11

06

M.O'.

